ZAMONAVIY ILM-FAN: FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION TARAQQIYOT

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MAQOLA VA TEZISLAR TO‘PLAMI



“FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR” ILMIY-AMALIY METODOLOGIK JURNALI

“ZAMONAVIY ILM-FAN: FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION TARAQQIYOT” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MAQOLA VA TEZISLAR TO‘PLAMI
2026-yil 12-noyabr

Toshkent – 2026

ISSN:3093-9240

“Zamonaviy ilm-fan:fanlararo integratsiya va innovatsion taraqqiyot” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqola va tezislar to‘plami (2026-yil 12-noyabr) – T.: FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR, 2026.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR KENGASHI
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Mirzayeva Faroxat Odiljonovna
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Bafayev Muxiddin Muxammatovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Jabborov Xazrat Xusenovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Alimova Yelena Gennadiyevna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ERTA NIKOHNING HUQUQIY VA PSIXOLOGIK OQIBATLARI

Umarova Gulbaxor Maxamad qizi
Marg‘ilon shahar IIB JXX HPB XQMB profilaktika inspektori

Annotatsiya. Maqolada erta nikohning uzoq muddatli psixologik oqibatlari va ularning kechikib namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq profilaktik muammolar tahlil qilinadi. Nikoh to‘g‘risida qaror qabul qilish va uning oqibatlarini boshdan kechirish o‘rtasidagi vaqt tafovuti, shuningdek, qaror qabul qiluvchi hamda uning ta’siriga duch keluvchi tomonlarning imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik yoritiladi. Ta’limdan uzilish, iqtisodiy qaramlik, o‘rganilgan ojizlik va oilaviy zo‘ravonlik xavfi o‘zaro bog‘liq omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Muammo ichki ishlar organlari psixologi va profilaktika inspektori faoliyati nuqtayi nazaridan tahlil etilib, xavf omillarini erta aniqlashga xizmat qiluvchi amaliy belgilar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: erta nikoh; ta’limdan uzilish; iqtisodiy qaramlik; o‘rganilgan ojizlik; oilaviy zo‘ravonlik; profilaktika; psixologik reabilitatsiya.

Аннотация. В статье анализируются долгосрочные психологические последствия раннего брака и проблемы профилактики, связанные с их отсроченным проявлением. Рассматриваются временной разрыв между принятием решения о вступлении в брак и переживанием его последствий, а также неравенство возможностей сторон, принимающих решение и испытывающих его воздействие. Прерывание образования, экономическая зависимость, выученная беспомощность и риск домашнего насилия рассматриваются как взаимосвязанные факторы. Проблема анализируется с позиции деятельности психолога органов внутренних дел и инспектора по профилактике; предлагаются практические признаки для раннего выявления факторов риска.

Ключевые слова: ранний брак; прерывание образования; экономическая зависимость; выученная беспомощность; домашнее насилие; профилактика; психологическая реабилитация.

Abstract. This article examines the long-term psychological consequences of early marriage and the prevention challenges associated with their delayed manifestation. It explores the time gap between the decision to marry and the experience of its consequences, as well as the unequal decision-making power of those making the decision and those affected by it. Educational disruption, economic dependence, learned helplessness, and the risk of domestic violence are considered interrelated factors. The issue is analyzed from the perspective of psychologists working within internal affairs agencies and prevention inspectors, and practical

indicators for the early identification of risk factors are proposed.

Keywords: early marriage; educational disruption; economic dependence; learned helplessness; domestic violence; prevention; psychological rehabilitation.

KIRISH

Profilaktika amaliyotida erta nikoh ko‘pincha bir martalik huquqbuzarlik sifatida qaraladi: hujjat rasmiylashtirilmagan, yosh to‘lmagan, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik chorasi ko‘rilgan — ish yopildi. Bu yondashuv hodisani qayd etadi, ammo uning uzoq muddatli oqibatini ko‘rmaydi.

Holbuki erta nikoh — bu voqea emas, jarayonning boshlanish nuqtasi. Undan keyin bir necha yil davomida bir-biriga bog‘liq uchta zanjir ishga tushadi: ta’limdan uzilish, iqtisodiy mustaqillikning yo‘qolishi va qarorlarni mustaqil qabul qilish ko‘nikmasining so‘nishi. Ushbu zanjirning oxirgi bo‘g‘ini odatda o‘n yildan keyin, allaqachon boshqa nom ostida — maishiy zo‘ravonlik yoki surunkali ruhiy inqiroz sifatida — ichki ishlar organlari e’tiboriga tushadi.

Ta’limdan uzilishning asosiy zarari — o‘zlashtirilmay qolgan bilim emas, balki tanlov imkoniyatining yo‘qolishi. Maktabni yoki kollejni tugatmagan qiz bir necha yildan keyin mehnat bozoriga chiqmoqchi bo‘lganda, oldida ikki to‘siq turadi. Birinchisi rasmiy: diplom yo‘q, malaka tasdiqlanmagan, rasmiy ish joyiga kirish yo‘li yopiq. Ikkinchisi — psixologik va aynan shu ikkinchisi og‘irroq: uzilish davrida u «men o‘rganishga qodirman» degan ishonchni ham yo‘qotgan bo‘ladi.

Psixologiyada bu holat o‘z-o‘ziga samaradorlik ishonchi (self-efficacy) atamasi bilan izohlanadi. Odam biror vazifani bajara olishiga ishonmasa, muvaffaqiyatsizlikdan qochish uchun urinishni butunlay boshlamaydi. Natijada tajriba to‘planmaydi, tajriba to‘planmagani uchun ishonch ham tiklanmaydi — yopiq halqa hosil bo‘ladi.

Shu sababli o‘n yildan keyin «nega o‘qishni davom ettirmadingiz», «nega ishga kirmadingiz» degan savollarga ko‘pincha mantiqiy javob olinmaydi. Javob mantiqiy emas, chunki to‘siq tashqarida emas, ichkarida shakllangan.

Amaliy xulosa profilaktika uchun muhim: ta’limdan uzilgan voyaga yetmagan shaxs holati nikoh rasmiylashtirilmagan taqdirda ham alohida e’tiborga olinishi kerak. Uzilish — nikohning oqibati emas, ko‘p hollarda uning birinchi belgisi. O‘quvchining maktabdan uzoqlashishi odatda nikohdan bir necha oy oldin boshlanadi va bu profilaktika uchun eng erta signal hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Iqtisodiy qaramlik faqat pul masalasi emas. U vaqt o‘tishi bilan shaxsning o‘zini qanday idrok etishini o‘zgartiradi. Mustaqil daromadi bo‘lmagan odam har bir ehtiyoji uchun — dori, transport, bolaning kiyimi, telefon to‘lovi — ruxsat so‘rashga majbur bo‘ladi. Dastlab bu maishiy noqulaylik sifatida qabul qilinadi. Bir necha yildan keyin

esa boshqa narsaga aylanadi: so‘rash odati shakllanadi va u bilan birga o‘z ehtiyojini asoslash zarurati paydo bo‘ladi. Odam o‘z talabini oqlashga o‘rganadi.

Bu jarayonning uchta ketma-ket bosqichini amaliyotda aniq kuzatish mumkin:

1. Moliyaviy qaramlik. Mustaqil daromad yo‘q, barcha xarajat uchinchi shaxs orqali o‘tadi.

2. Ijtimoiy qaramlik. Aloqa doirasi torayadi, dugonalar va qarindoshlar bilan muloqot kamayadi — ko‘pincha nazorat, ba’zan esa uyat tuyg‘usi sababli.

3. Qaror qabul qilish qaramligi. Shaxs o‘zi uchun muhim masalalarda ham mustaqil fikr bildirmay qo‘yadi; tashqi kuzatuvchiga bu «rozilik» bo‘lib ko‘rinadi.

Uchinchi bosqichga yetgan holat psixologik yordamsiz o‘z-o‘zidan ortga qaytmaydi. Va aynan shu bosqich huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun eng murakkab vaziyatni hosil qiladi: jabrlanuvchi bor, ariza yo‘q.

Shuni ta’kidlash kerakki, iqtisodiy qaramlikning o‘zi huquqbuzarlik emas. U faqat zo‘ravonlik yuzaga kelgan taqdirda undan chiqish imkoniyatini keskin toraytiruvchi omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

Psixologiyada bu hodisa o‘rganilgan ojizlik (learned helplessness) deb ataladi. Uning mohiyati quyidagicha: agar shaxs uzoq vaqt davomida o‘z harakatlari natijaga ta’sir qilmasligini takroran kuzatsa, keyinchalik vaziyat o‘zgarib, real imkoniyat paydo bo‘lganda ham harakat qilmay qo‘yadi. Ojizlik holatning xususiyati bo‘lishdan to‘xtab, shaxsning o‘z-o‘zi haqidagi tasavvuriga aylanadi.

Erta nikohdan keyingi o‘n yil aynan shunday takrorlanuvchi tajribalar ketma-ketligidan iborat bo‘lishi mumkin: aytilgan fikr inobatga olinmaydi, qilingan urinish natija bermaydi, murojaat qilingan joy yordam bermaydi. Har bir alohida epizod unchalik og‘ir ko‘rinmaydi, ammo ularning yig‘indisi barqaror ishonchni shakllantiradi — «baribir o‘zgarmaydi».

Bu holatning ichki ishlar organlari uchun amaliy oqibati aniq: ariza yo‘qligi — muammo yo‘qligini anglatmaydi. Jabrlanuvchining passivligi ko‘pincha roziylik emas, balki uzoq davom etgan ta’sirning natijasidir.

Shundan kelib chiqib, bir martalik suhbat natija bermasligi tabiiy hol sifatida qabul qilinishi kerak. Birinchi muloqotning maqsadi arizani olish emas, aloqani o‘rnatish bo‘lishi lozim. Ishonch tiklanishi odatda bir nechta uchrashuvni talab qiladi, va bu jarayonni tezlashtirishga urinish ko‘pincha teskari natija beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasiga muvofiq nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun bir xil — o‘n sakkiz yosh. Alohida hollarda (homiladorlik, bola tug‘ilishi, emansipatsiya) tuman yoki shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

Amaliyotda ko‘pincha chalkashlik yuzaga keladigan nuqta shu: erta nikoh va majburiy nikoh har xil moddalar bilan kvalifikatsiya qilinadi.

1-jadval.

Erta nikohning oldini olish va voyaga yetmaganlarni himoya qilishning normativ-huquqiy asoslari

Norma	Nimani qamrab oladi	Amaliy ahamiyati
Oila kodeksi, 15-modda	Nikoh yoshi — 18 yosh, istisno hollarda 1 yilgacha kamaytirish	Boshlang‘ich mezon
JK, 125¹-modda	Nikoh yoshi to‘g‘risidagi qonunchilikni yoki nikoh tuzish tartibini buzish; 2-qism — ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni erga berish yoxud uylantirish	Erta nikoh bo‘yicha asosiy modda
JK, 136-modda	Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilish	Majburlash elementi bo‘lganda
MJTK, 47³-modda	Nikoh yoshi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish	Ma’muriy javobgarlik
O‘RQ-996-son (14.11.2024)	Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish; himoya orderi institute	Voyaga yetmagan jabrlanuvchi bo‘lganda

Agar ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar nikoh yoshiga to‘lmagan qizni uning erkiga xilof ravishda erga tegishga majbur qilsa, bu harakatlar 125¹-moddaning ikkinchi qismi va 136-modda bo‘yicha jinoyatlar majmui tariqasida kvalifikatsiya qilinadi. O‘RQ-996-sonli Qonun bilan joriy etilgan himoya orderi ichki ishlar organlari tomonidan o‘ttiz kun muddatgacha beriladi; tahdid bartaraf etilmagan bo‘lsa, jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili arizasiga ko‘ra sud tomonidan bir yilgacha uzaytirilishi mumkin. Qonun ruhiy zo‘ravonlik va ta’qib etishni (bulling) ham zo‘ravonlik shakli sifatida belgilaganligi psixologik baholash uchun alohida ahamiyatga ega.

Bu yerda bitta uslubiy chegara aniq bo‘lishi kerak. Himoya orderi tahdidni to‘xtatadi, lekin o‘n yil davomida shakllangan qaramlik va ojizlik holatini bartaraf etmaydi. Huquqiy chora — zarur shart, ammo yetarli shart emas. Erta nikohni nikoh rasmiylashtirilgandan keyin aniqlash — kech aniqlash. Amaliy profilaktika uchun undan oldingi bosqich muhimroq. Quyidagi belgilar alohida olinganda hech narsani isbotlamaydi. Ularning ikki-uchtasi bir vaqtda, bir necha hafta davomida kuzatilsa, bu holat alohida e’tiborga olinishi kerak degan ma’noni anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytilganda, erta nikohning psixologik narxi darhol to‘lanmaydi. U o‘n–o‘n besh yilga bo‘lib to‘lanadi va to‘lov muddati kelganda uni to‘xtatish uchun huquqiy choraning o‘zi yetarli bo‘lmay qoladi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi uchta tavsif amaliy ahamiyatga ega.

1) Ta’limdan uzilish erta nikohning oqibati emas, ko‘p hollarda uning dastlabki belgisidir. Shu sababli maktab, mahalla va profilaktika inspektori o‘rtasidagi axborot almashinuvi nikoh faktini emas, aynan uzilish faktini birinchi signal sifatida qabul qilishi lozim.

2) Jabrlanuvchining passivligi rozilik sifatida talqin qilinmasligi kerak. Ariza yo‘qligi — bu ko‘pincha uzoq davom etgan ta’sirning natijasi, muammo yo‘qligining dalili emas.

3) Himoya orderi berilgan har bir holat psixologik reabilitatsiya rejasi bilan birga yuritilishi maqsadga muvofiq. Order tahdidni to‘xtatadi, reabilitatsiya esa holatning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ularning biri ikkinchisini almashtirmaydi.

Nihoyat, uslubiy jihatdan eng muhim nuqta: bu masalada profilaktika ishi ayblov ohangida olib borilsa, natija bermaydi. Ota-ona ko‘pincha farzandiga yomonlik qilish niyatida emas, balki o‘n yildan keyingi oqibatni ko‘ra olmaganligi uchun shunday qaror qabul qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 14–15-moddalar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 125¹- va 136-moddalar. — lex.uz/acts/-111453
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, 47³-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrdagi «Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida» O‘RQ-996-son.Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-7219502?ONDATE=15.05.2025
5. Nikoh tuzish tartibini buzganlik uchun qanday javobgarlik bor: JK 125¹-moddasi tahlili. — yuz.uz
6. Oila er-xotinning roziligi asosida qurilishi kerak: JK 136-moddasi bo‘yicha javobgarlik chora-tadbirlari. — yuz.uz
7. Seligman M.E.P. Helplessness: On Depression, Development and Death. — San Francisco: W.H. Freeman, 1975.
8. Bandura A. Self-efficacy: The Exercise of Control. — New York: W.H. Freeman, 1997.

MUNDARIJA

1.	**MAKTAB PSIXOLOGIYASI AMALIYOTIDA O‘SMIRLARDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA PROFILAKTIKASI** **Xayrullayeva Baxtigul Ilxomjon qizi**	**5**
2.	**JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA, NAZARIYA VA AMALIYOT** **Jalilov Otabek Baxodirovich**	**10**
3.	**O‘SMIRLARDA PROBLEMATIK INTERNETDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA PSIXOLOGIK PROFILAKTIKASI** **Mansurova Zeboxon Tursinboyevna**	**16**
4.	**PSIXOLOGIYAGA OID TADQIQOTLARDA SPSS DASTURIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA STATISTIK TAHLIL ANIQLIGINI TA’MINLASH** **Nazarov Davron Baxtiyor o‘g‘li**	**26**
5.	**O‘SMIRLARDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI** **Arslonova Nafosat Akbaraliyevna, Ashurov Ramzidin**	**32**
6.	**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA INTEGRATSIYAGA ASOSLANGAN DARSLARNI TASHKIL ETISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH** **Abdisharipova Shaydo Bahtiyor qizi**	**38**
7.	**ZAIF ESHITUVCHI O‘QUVCHILARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOG VA OTA-ONA HAMKORLIGI** **Abduqodirova Dilobarbonu Erkinjon qizi**	**46**
8.	**SHAXS TEMPERAMENT TIPLARINI QO‘L TERMOGIGROANALIZI ORQALI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI** **Z.D. Dilmurodova**	**52**
9.	**СУБЪЕКТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНАЯ АКТИВИЗАЦИЯ ЛИЦ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА КАК ПСИХОПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ БАРЬЕР НЕЙРОДЕГЕНЕРАТИВНОЙ ПАТОЛОГИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ** **Асанова Гузаль Мухарамовна, Иброхимов Хусниёр Абдукарим угли**	**58**
10.	**KIMYO TA’LIMIDA AN’ANAVIY VA INNOVATSION O‘QITISH METODLARINI UYG‘UNLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI** **Sulaymonqulov Islomjon, Tursunova Yu. B.**	**63**
11.	**ZAMONAVIY TA’LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING NAZARIY ASOSLARI VA FUNKSIONAL IMKONIYATLARI** **Usmonova Zuxra Alisher qizi, Tursunova Yu.B.**	**68**

12.	**AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY DIDAKTIK PARADIGMALARDA TA’LIM NATIJALARINI TASHXISLASH YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI**	
	Tursunova Feruza Otaqulovna	**73**
13	**ERTA NIKOHNING HUQUQIY VA PSIXOLOGIK OQIBATLARI**	
	Umarova Gulbaxor Maxamad qizi	**78**
14	**TA’LIMDA PSIXOLOGIK MOSLASHUVNING YANGI PARADIGMASI: RAQAMLI MUHIT, SHAXS VA PEDAGOGIK HAMKORLIK**	
	Qudratova Zarnigor Anvar qizi	**83**
15	**DINIY OG‘ISHLAR KONTEKSTIDA OMILLAR, PROFILAKTIKA VA PSIXOKORREKSIYA**	
	Agzamova Malika Muratovna, Turatoshova Zarnigor	**88**
16	**MILLIY VA ZAMONAVIY OILALARDAGI O‘ZARO FARQLAR. OILAVIY QADRIYATLAR, MULOQOT VA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI**	
	Abdumajidova Diyora Ashirqul qizi	**93**
17	**PALLIATIV YORDAMDA OILA A’ZOLARINING PSIXOLOGIK HOLATI: EMOTSIONAL TOLIQISH, QAYG‘U VA STRESS**	
	Bobomurotova Aziza Rustam qizi	**98**
18	**INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA PEDAGOGLARDA EMOTSIONAL SO‘NISH SINDROMINING OLDINI OLISH - BARQAROR TA’LIM MUHITINING PSIXOLOGIK SHARTI**	
	N. Umirzakova	**102**
19	**OILALARDA SHAXSIY CHEGARALARNING O‘RNI: O‘ZBEK OILALARINING MILLIY-MADANIY QADRIYATLARI VA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK EHTIYOJLARI KONTEKSTIDA**	
	Abdumajidova Diyora Ashirqul qizi	**106**
20	**IJTIMOIY TARMOQLARDAGI IDEAL AYOL OBRAZI VA AYOLLARDA AYBDORLIK HISSINING SHAKLLANISHI**	
	Shakirova Shahnozabonu Tuxta qizi	**111**
21	**SPECTRAL AND IMAGING SIGNATURES OF ACCRETION FLOWS AROUND ROTATING BLACK HOLES**	
	Ochiltosheva Durdonagul Zamon qizi	**115**
22	**ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ ЛИЧНОСТИ**	
	Хатамова Камилла Шухратовна, Баходирова Нозима Рустамовна	**121**
23	**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA FONETIK-FONEMATIK IDROKNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**	
	Boboqulova Surayyo Madrahim qizi	**127**
24	**ИЗМЕНЕНИЕ ВНУТРИСЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ДЛИТЕЛЬНОГО ЛЕЧЕНИЯ РЕБЁНКА С ОНКОЛОГИЧЕСКИМ ЗАБОЛЕВАНИЕМ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна	**130**
25	**MAKTABGACHA TA’LIMDA NUTQIY RIVOJLANISH**	**136**

	Ruziyeva Dilfuza Nuritdinovna	
26	**СОЦИАЛЬНОЕ СРАВНЕНИЕ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ КАК ФАКТОР СНИЖЕНИЯ САМООЦЕНКИ ЛИЧНОСТИ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Юсупбаева Гоззал Юсупбаевна, Ганибекова Ситора Отабековна, Мадаминова Гулчехра Мардонбековна	**141**
27	**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KASB HUNARGA QIZIQISHLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI**	
	Sharipova Guzal Sodiqovna, Musayeva Madina Jahongir qizi	**145**
28	**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ СТУДЕНТОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Раимжанова Севинч Олимовна, Марсакова Малика Фазилиддин кизи, Махмудова Ширин Муроджон кизи	**153**
29	**IJTIMOIY TARMOQLARDAGI LAYK VA IZOHLARNING O‘SMIRLARDA TASHQI BAHOLANISHGA EHTIYOJ SHAKLLANISHIGA TA’SIRI**	
	Maxmudov Salimjon Uralovich	**158**
30	**ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ВОСПРИЯТИЕ СОБСТВЕННОЙ ЛИЧНОСТИ И САМООЦЕНКУ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Багаутдинова Саида, Курамшина Алия	**164**
31	**MOLIYAVIY STRESSNING IQTISODIY QAROR QABUL QILISH JARAYONIGA TA’SIRI**	
	Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**168**
32	**ШКОЛЬНЫЙ БУЛЛИНГ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ ПОДРОСТКОВ: ПРИЧИНЫ, ПОСЛЕДСТВИЯ И ПРОФИЛАКТИКА**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Абдуллаева Манзура Олимбек кизи, Солтоева Мадинахон Дилшод кизи	**172**
33	**O‘SMIRLARDA DEVIANTLILIKNING KONATIV ASPEKTLARINI TADQIQ ETISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**	
	Turayeva Gulchehra Urayimovna	**179**
34	**СПЕЦИФИКА ТЕЛЕСНЫХ ЖАЛОБ У ЛИЦ С РАЗЛИЧНОЙ ВЫРАЖЕННОСТЬЮ АЛЕКСИТИМИИ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Панасырова Сабина Вячеславовна, Набижанова Нигорахон Нематжановна, Герман Карина Алексеевна	**184**
35	**“NS-PSIXOTEST EKSPERT” KOMPYUTERLI PSIXODIAGNOSTIK MAJMUASINING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDAGI IMKONIYATLARI**	
	Mavlanov Donyor Ergash o‘g‘li	**191**

36	**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАЩИТНЫЕ МЕХАНИЗМЫ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ БЛИЗОСТИ В МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ** **Асанова Гузаль Мухарамовна, Слодкина Валерия Дмитриевна, Хисаметдинова Элина Эмильевна**	**197**
37	**BUXORO VILOYATI SHAROITIDA KICHIK QUVVATLI SHAMOL ELEKTR QURILMALARINING ENERGETIK KO‘RSATKICHLARINI VEYBULL TAQSIMOTI ASOSIDA BAHOLASH VA OPTIMAL TURBINA TANLASH** **D.A. Tursunov, N.A. Nasulloyeva**	**201**
38	**PLUGLARNING TURLARI VA ULAR BILAN TUPROQQA ASOSIY ISHLOV BERISH AHAMIYATI** **Fayzulloyev Muxriddin Nasriddin o‘g‘li, Sayfulloyev Azizbek Anvarjon o‘g‘li, Orziyev Sardor Samandar o‘g‘li**	**208**
39	**BUXORO VILOYATI ISSIQ IQLIM SHAROITIDA FOTOELEKTR MODULLARNING HARORAT REJIMINI MODELLASHTIRISH VA PASSIV RADIATORLI SOVITISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH** **D.A. Tursunov, U.Q. Shermetov**	**215**
40	**“BUXORO HETK” AJ TAQSIMLOVCHI TARMOQLARIDA SUN’IY INTELLEKT VA MASHINALI O‘QITISH USULLARINI QO‘LLASH** **A.H. Shoboyev, N.M. Amrulloyeva**	**223**
41	**PAXTA SANOATIDA TOSH TUTGICH QURILMASINI AHAMIYATI VA ISHLASH MEXANIZMI** **Raxmonov Xayridin Qodirovich, Baxshilloyeva Shaxrizoda Davlat qizi**	**230**
42	**O‘ZBEK SHE’RIYATIDA “VATAN” KONSEPTINING KONTRASTLAR ORQALI IFODALANISHI** **Xolmo‘minova Mahliyo Ravshan qizi**	**234**
43	**АНГЛИЙСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЦИФРОВОМ ДИСКУРСЕ: ТЕМАТИКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ И СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ** **Тураханов Акром Абдуллахакимович, Тураханова Фируза Шавкатовна**	**238**
44	**BUYUK DAVLAT ARBOBI ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR** **Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi**	**256**
45	**INNOVATIVE APPROACHES TO TRANSFORMING LIFELONG EDUCATION: FOREIGN EXPERIENCE, PROBLEMS AND SOLUTIONS** **Akrom Abdullakhakimovich Turakhanov, Firuza Shavkatovna Turakhanova**	**261**
46	**LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS’ PRODUCTIVE LANGUAGE SKILLS IN ENGLISH** **Meylinorova Feruza Baxtiyor qizi**	**269**

47	**HOZIRGI O‘ZBEK RAQAMLI DISKURSIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING MAVZUVIY-KONSEPTUAL VA STRUKTURAVIY-SEMANTIK MOSLASHUV XUSUSIYATLARI**	
	Turaxanov Akrom Abdullaxakimovich, Turaxonova Firuza Shavkatovna	**275**
48	**SUN’IY INTELLEKT VA O‘ZBEK ADABIYOTI: MUALLIFLIK, INTERTEKSTUALLIK VA BADIIY QIYMAT MASALALARI**	
	Narmatova Manzura Tulaganovna	**289**
49	**PRAGMATIC TRANSFER AND CULTURAL BIAS IN LARGE LANGUAGE MODEL TRANSLATIONS OF HIGH-CONTEXT SPEECH ACTS**	
	Nurullayev Mirzabek Kobil ugli, Usmonkulova Nilufar Uchkun kizi	**298**
50	**THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLEGENCE IN EDUCATION: OPPORTUNITIES, PROBLEMS, PROSPECTS**	
	Teshaboyeva Jasmina Elmuradovna, N.Kh.Kholmakhmadova	**303**
51	**TILSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIK LEKSIKANING NAZARIY ASOSLARI**	
	Xolmurodova Parvena Mamayusupovna, Bakirov Poyan Uralovich	**307**

Tahririyatga taqdim etilgan materiallar qaytarilmaydi. Barcha ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki ko‘rib chiqish, ilmiy ekspertiza va taqriz jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalning mavzu va ilmiy yo‘nalishlariga mos kelmagan, tahririyat tomonidan belgilangan talablar hamda nashr etish mezonlariga javob bermagan maqolalarni nashrga qabul qilmaslik huquqi tahririyatda saqlanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ nashriyotida nashrga tayyorlandi va jurnalning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi
Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, 8-uy
Rasmiy veb-sayt: https://fanlararotadqiqotlar.uz/index.php/conference/r
E-mail: publisher@fanlararotadqiqotlar.uz